



“DARYOSINI YO‘QOTGAN QIRG‘OQ” ROMANIDA INSON VA TABIAT KONSEPSIYASI

Xajiboyev Kishin Alisher o‘g‘li,
Urganch innovatsion universiteti o‘qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207148>

***Annotatsiya.** Maqolada Erkin Samandar asarlarining asosini inson va tabiat konsepsiyasi tashkil etishi, “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romanida tasvirlangan syujet voqeligining bir yo‘li ikki obyekt vositasida insonlik va tabiat dunyosini muqoyasada berilishi haqida mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, Buva, Qurbon Salayev personajlarining atrof-muhit va jonzotlarni himoya qilgani uchun tabiat kushandarlari tomonidan ayanchli ahvolga solinishi, oqibatda tabiat va insonlar o‘rtasidagi munosabatning buzilishi mukammal qurilishga ega syujet voqealari asosida tahlilga tortilgan.*

***Kalit so‘zlar.** Inson, tabiat, syujet, fabula, harakatlar dinamikasi.*

Inson va tabiat birligi konsepsiyasi Erkin Samandar asarlarining asosi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu jihat ijodkorning she‘rlaridan tortib, qissa va romanlarida ham o‘ziga xos tarzda aks etgan va “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romaniga qadar muayyan tadrij yo‘lini bosib o‘tgan. Adibning “Amu jilolari”, “Osmon to‘la nur”, “Sohildagi bolalar” kabi she‘riy majmualaridagi ko‘plab she‘rlarida markaziy qahramon yoki asar badiiy konsepsiyasini tashuvchi bosh badiiy komponent sifatida tabiat va hayvonot bosh o‘ringa chiqadi. “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romanida bu vazifa inson va tabiat o‘rtasida nisbiy tenglik hosil qiladi. Inson va tabiat birligi konsepsiyasi ko‘proq inson muammosi doirasida yoritiladi. Inson tabiatidagi yovuzlik tuyg‘ulari, odam bolasining botiniy-psixologik muammolari ko‘proq ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan roman sarlavhasiga chiqarilgan nom ham daryosini (Amudaryo) yo‘qotgan qirgoqni, shu qirg‘oq misolida Orol dengizidan ajralgan, Amudaryoda suv tanqisligi, sho‘rlanishning keskin oshib ketishi, cho‘llashish natijasida aziyat chekayotgan odamlar tasvirlanadi. Ushbu fojiaga sabab bo‘lgan insonlar botinidagi yovuzlikning poetik ramzlashtirilgan shaklini ifodalaydi. Shuningdek, bosh qahramon Ganja va Amudaryoning o‘tmishi, buguni va kelajagi tabiat pozitsiyasidan turib tasvirlanadi. Romanda tasvirlangan syujet voqeligining bir yo‘li ikki obyekt vositasida berilishi insonlik va tabiat dunyosini muqoyasada qabul qilishga zamin hozirlaydi.

“Syujetning badiiy asardagi funksiyalari haqida so‘z ketganda, avvalo, uning asar problemasini badiiy tadqiq etishga imkon beradigan hayot materialini uyushtirib berishini aytish kerak” [Quronov D. 2:116]. Shunday ekan “Daryosini yo‘qotgan



qirg‘oq” romanidagi syujetda tabiat va inson mukammal birlik hosil qiladi. Bu birlik insoniyat nafsi sababli buzilganda, Amudaryo suvining kamayib ketishi, Orol dengizining qurishi kabi jiddiy muammolarga olib kelishi romanga Ganja va Amudaryo liniyasiga uzviy bog‘langan holda olib kiriladi. Boshqa voqealar shu liniyaga bog‘lanadi. Ganja Qorayontoq qishlog‘i farzandi sifatida Amudaryo bo‘ylarida voyaga yetadi. Asar voqealarining aynan Amudaryo qirg‘oqlarida ro‘y berishi muallif ijodiy niyati ijrosi uchun aynan maqbul variant. Daryo va Orol dengizidagi o‘zgarishlar, avvalo, uning atrofida yashaydigan aholini tahlikaga solishi tabiiy hol. Shu sababli asarda Qorayantoq, Duldulsoy, Kiyikto‘qay, Bog‘iston kabi Qoraqalpog‘iston va Xorazmdagi daryo bo‘ylarida joylashgan joylar obyekt sifatida tanlab olinadi.

Voqealarning hayotda yuz berish tartibi (fabula) bilan ularning asarda joylashtirilish tartibi yuqorida ham ta’kidlab o‘tganimizdek farqlanadi. Masalan, Ganja romanning boshida qamoqdan chiqib poyezdda kelayotganda ikkinchi turmush o‘rtog‘i Mohirani ko‘rib qoladi. Bu paytda bir kun kelib shu qiz bilan hayot yo‘llarini bog‘lashi Ganjaning xayoliga ham kelmagan edi. Mohiraning onasi Ganjani xushlamaydi. Mohira u bilan gaplashgani uchun qizini koyib beradi. *“Har qo‘lida ikki shishadan “Borjomi” ko‘tarib, qizil kuylakli qiz kupega kirdi. Yuzlari kuylagidek lov-lov yonardi. Yigitni ko‘rib, beixtiyor: “Voy, bizning kupega chiqdingizmi”, deb yubordi. U bosh qimirlatdi. – Taniysanmi? – so‘radi ayol. – Bufetni menga bular ko‘rsatdilar, - dedi qiz mamnun. “Bufetni bilsa ichadiganlardan, ichib olib hali tamosha ham ko‘rsatar. Qayoqdan ham duch keldik bu ro‘dapoga”* [Самандаров Э. 3:9].

Agar voqealar hayotda yuz berish tartibi bilan berilganda roman boshidan Ganjaning Mohira bilan emas, birga o‘qib, sevishib turmush qurgan birinchi ayoli Qumri bilan uchrashgani aks ettirilgan bo‘lishi kerak edi. Albatta, bunda muallif muayyan badiiy-estetik maqsadni ko‘zlagan. O‘sha roman boshida epizodik obraz ko‘rinishidagi Mohira roman oxirida Ganja bilan doimiy birga bo‘ladi. *“Seviklining aybi ravo ko‘rinur, Jami ters ishi o‘ng, sazo ko‘rinur”* [Юсуф Хос Ҳожиб, 5:23] deganlaridek Ganjaning o‘tmishda qilgan xatolari Mohiraga qahramonlik bo‘lib tuyuladi. Ko‘ngil qo‘yib tanlagan Qumri esa Ganjaga xiyonat qiladi. *“Ganja poyezdga chiqdi. Voajab! Ro‘parasida Mohira turardi. O‘sha qizil kuylakli qiz. Ganja qamoqdan qaytayotganida poyezdda ko‘rgan Mohira. Ganjaning avvalgi hayrati ham gapmi, nahotki deb boqardi ko‘zlariga ishonmay. Ikkalasi ham bitta dam olish maskaniga borishayotgan ekan. Tavba! Tavba!!!”* [Самандаров Э. 3:242].



Muallif birinchi rafiqasi bo‘lsa-da, Ganjaga xiyonat qilgan Qumrini emas, balki o‘z aqli bilan Ganjaga kuch bag‘ishlagan ikkinchi ayol Mohirani asar boshida ko‘rishni istaydi. Ko‘rinadiki, Erkin Samandar romandagi syujet voqealarini tartibi o‘zgartirib, kitobxon faolligini, asarning qiymatini oshirgan. O‘quvchini qahramon ruhiyatiga yaqinlashtirgan.

“Ko‘rib o‘tilgan misoldan ayon bo‘ladiki, fabula voqealarning tabiiy oqimi bo‘lsa, syujet ularning muayyan maqsadga muvofiq qayta tartiblangan, ya’ni badiiy qayta ishlangan shaklidir. Mazkur holni istilohda aniq ifodalash uchun ayrim manbalarda “syujet kompozitsiyasi” atamasi qo‘llaniladi” [Quronov D. 2:118]. “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romani syujet kompozitsiyasida tushirib qoldirsa bo‘ladigan voqealar ham asar ichida muayyan mazmuni ifodalashga xizmat qildirilgan. Deylik, roman bosh qahramoni Ganjaning qizi Ra‘no tug‘iladigan kunida ishga borishi fabula nuqtayi nazaridan unchalik muhim emas, tushirib qoldirsa bo‘ladi. Biroq syujet kompozitsiyasi nuqtayi nazaridan bu voqea muhim, chunki bunda Ganjaning tabiat oldida qiynalayotgan vijdoni, ruhiy holati, o‘zi bilan o‘zi kurashib yurgan onlari, o‘rtanib yashagan qamoqdagi besh yillik umri yorqin tasvirlangan. Mana o‘sha Ganjani vijdoni bilan hisoblashishga unadayotgan o‘ylar: *“Daryo sassiz oqar edi. Daryo hali o‘z boshiga tushadigan ko‘rguliklarni bilmaydida, bilsa ehtimol shovqin ko‘tarardi, qirg‘oqqa bosh urardi, qurilayotgan katlavon-u to‘g‘onni buzib, yemirib, toshlarni kemirayotgan texnikani girdobiga olardi, chilparchin qilib tashlardi”* [Самандаров Э. 3:38].

Bunday holat Buva personajida ham uchraydi. Oq g‘oz va qabar haqidagi voqea fabula uchun unchalik muhim emas, tushirib qoldirsa ham bo‘ladi, ammo syujet nuqtayi nazaridan juda ham muhimdir. Chunki Buva mayib bo‘lgan oyig‘ini davolash uchun aynan qabar o‘simligidan foydalanadi. Buni esa u o‘sha g‘ozdan o‘rgangan edi. *“O‘n-o‘n besh qadam narida bitta oq qush qorni kuradi, bag‘rini maysaga berib yotdi. Meliqush yordamida Buva qush tomon bordi. G‘oz ekan. Na hurkdi, na qochdi. Qanoti ostidan bir tomchi qon oqdi. Buva uning dumidan tutib asta ko‘tardi. Qush ko‘kragini berib yotgan maysa emas, qabar ekan. Odatda, yaralangan qushlar qabarga suykanadi, undan yarasiga malham topadi”* [Самандаров Э. 3:132]. Bu lavha orqali Buvaning haqiqiy tabiat shaydosi ekanligini sezish qiyin emas. U otlarni qutqarish uchun Kiyikto‘qayga kelib, otlar bilan yashaydi, sovuq qorda oyog‘i shikastlanadi. Oyog‘ini qabar bilan davolagach, tabiatga bo‘lgan mehrini shunday izhor qiladi: *“Tabiatni ona deb bekorga aytishmagan. U qushni ham, insonni ham o‘ylaydi. Dorixonasi ham, dorisi ham o‘zida. Oqsagan paytingda oldingdan chiqadi.*



Uni toptamasang bo‘lgani. Uni ko‘rsang, unga ixlos qo‘ysang bo‘lgani” [Самандаров Э. 3:133]. Buving bu so‘zlari azaldan tabiat va inson birga yashaganligi, agar ahil bo‘lib yashasa, farovon, sog‘lom hayot kechirishi, bir-biriga dushmanlik qilsa, ularni og‘ir falokatlar girdobiga olishi ifodalangan. Go‘yoki, bu so‘zlar zamirida muallif romanning asosiy g‘oyasiga ishora qilayotgandek. Tabiat va inson munosabatlari, uning oqibatlarini teran kuzatishlari orqali Buva obraziga singdirgan.

Ma‘lumki, adabiy asar syujeti personajlarning “harakat”laridan tarkib topadi. “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romanida tashqi harakat dinamikasi yetakchilik qiladi. Ayni paytda bu asarda ichki harakat dinamikasi ham kuzatiladi, lekin u salmoq jihatidan syujet tipini belgilay olmaydi. Romanda Ganja, Qurbon Salayev, Buva kabi personajlarning tabiatni himoya qilish borasidagi, Aminov, Isroili rais, Quljon kabi tabiatni oyoq osti qiluvchi tashqi harakatlari dinamikasi syujet voqealarini to‘ldirib boradi. Tarix fani o‘qituvchisi Qurbon Salayevning harakatlarida har bir millat o‘zligini asrashi, tabiat boyliklarini himoya qilishi, nafaqat himoya qilishi, balki uning qadriga yetishi kerakligi haqidagi g‘oyalar yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Qurbon Qorayantoq qishlog‘i maktabida tarix fanidan dars berar edi. Qoraqum etagida Qorayantoq qishlog‘i bilan birga ko‘l ham joylashgan. Uning atrofidagi yerlarni sho‘r bosib, hosildan chiqdi. Buni chorasini topa olmagan o‘qituvchi Isroil raisga uchrashdi, naf chiqmagach raykomga bordi. Tekshirib ko‘ramiz deyishdi, tekshirmadi. Qurbonning bu ish bilan boshi garang bo‘lib yurganda Naysonbuva yodgorligiga darz ketganligini eshitib qoldi. Borsa ahvol chatoq. Ziyoli ekanligidan uyali ketdi. Tezroq chorasini qilmasa, yiqilib tushadi. Yana Isroil raisga, sho‘roga uchradi, foydasi bo‘lmadi. Ular endi bir qilmagan ishimiz machitning remonti edi deb baqirib berishdi. Boshi qotgan Qurbon Toshkentga, tarixiy yodgorliklarni ta‘mirlash idorasiga xat yozdi. Javob kelavermagach ikki-uch shogirdi bilan Naysonbuva qabristoniga borib, yodgorlikni remont qildi. Zero, “Shaxs ekologik ongi va madaniyatining tabiatga estetik munosabatini shakllantirishga ta‘siri, ularning barcha sohalari va yo‘nalishlari uchun universalligini, maqsadga muvofiqligini, imkoniyati realligini ta‘minlaydi” [Айтматов А. 1:36]. Bu Qurbon Salayev fitratida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ertasi kuni u ishlaydigan maktabda yig‘ilish bo‘ldi. Kun tartibida: Tarix o‘qituvchisi Qurbon Salayevning ishi. Yig‘ilishga Isroil rais ham keldi, u Qurbon mafkuraviy xatoga yo‘l qo‘yib, yoshlarni qabristonga olib borgani, eskilik sarqitlariga berilgani haqida so‘zladi. Doimo raisning pinjiga tiqilib yuradigan direktor bundaylar



37-yilda peshonasidan otilgani, hozir ham shafqat qilmaslik kerakligi, masjidni ham yo‘qotish kerakligini aytdi va oldindan yozilgan arizaga Qurbonni ishdan bo‘shatish uchun imzo chekdi. Qurbon uyiga bordi. Rayon militsiyasi boshlig‘i kelib, o‘z-o‘zidan uyini tintuv qildi. Shkaf tagidan sellofon xaltachada nasha topib, uni 8 yilga kesishdi. Jazoning oltinchi yilida uni Duldulsoyga majburiy xizmat uchun olib kelishdi. Bu yerda u Ganja bilan tanishdi. Qirtepa portlatilishidan oldin bu tarixiy yodgorlik, portlatmang, mutaxassislarni olib kelib o‘rganaylik deganida, unga yana oldingi ishlaringni boshladingmi, deb ogohlantirish berildi. Bu jumjalarning o‘ziyoq roman tabiat va insoniyat munosabatlari muammosi ustiga qurilganidan dalolat beradi.

Romanda Komila aya obrazi ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Chunki Ganja rafiqasi Qumrini unga o‘xshatadi. Komila aya qo‘shiqni maromiga yetkazib kuylar edi. San‘atni deb oilasini unutdi, lekin baribir xalq artisti bo‘la olmadi. Komila aya turmush o‘rtog‘i G‘ulomjon Sobirov bilan ajrashdi, o‘g‘li Zufar otasida qoldi. Umrining oxirida Komila aya kasal bo‘lib qoldi, bunga chidolmay uni G‘ulomjon aka uyiga olib keldi. Qumri ham ishni bahona qilib oilasidan uzoqlashdi, unutdi: “*Qumrixon shahar Ijroqumining bo‘lim mudirligiga ko‘tarildi. Erta ketib, kech keladigan bo‘ldi. Majlislari, safarlari ko‘paydi... Qumrixonning bo‘ynida dog‘ ko‘rindi. Ganjaning yuragi shig‘ etdi. Nimaning izi? Xotini apil-tapil bo‘ynini bekitdi. Ko‘kragida ham xuddi bo‘ynidagi kabi qizil va ko‘kimgir dog‘lar ko‘rindi. Ularning o‘pich izi, tish izi ekanligiga shubha yo‘q edi*” [Самандаров Э. 3:13]. Muallif bu harakatlar orqali 60-80-yillarda nafaqat ekologiyada balki insoniyatning ma‘naviy hayotida ham axloqiy buzilishlar bo‘lganini aniq ko‘rsatib bergan.

Romanda ichki harakatlar dinamikasi Ganja, Buva, Qumri va Meliqush ot hissiyotlarida aniq ko‘rinadi. Ganja qamoqdan chiqib uyga qaytayotib, avvalo, Amudaryoni borib ko‘radi, suviga yuzlarini yuvadi. U yerda kechgan bolalik chog‘larini, baxtiyor kunlarini esga oladi. To‘yida Qumri ikkisi uchun Buva yasab bergan kema hozir sohilda kalamushxona bo‘lib yotardi. Uni ko‘rib, Qumri bilan o‘tkazgan kunlarini eslab ketdi. Yurak-bag‘ri eziladi. “*Kema daryo tashlab ketgan yerga bag‘rini berib yotardi. Shoxi singan. O‘ng biqinida uch-to‘rt taxtasini kimdir qo‘porib olib ketgan. Tag taxtalari teshilgan. Ichida kalamushlar in qurgan. Ichida kalamushlar in qurgan, kemptiklari ko‘p. Bechora kema, seni faqat daryo tashlab ketdimi?*” [Самандаров Э. 3:136]. Muallif ushbu harakatlarda suvi bo‘g‘ilgan Amudaryoning holatini, baxtli kunlaridan nishona, to‘rong‘idan yasalgan kemaning g‘arib ahvolini Ganjaning o‘ylari orqali beradi.



“Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romani voqealari xronikali, konsetrik syujetning uyg‘unlashib ketishi asosiga quriladi. Romanda Ganja obrazi atrofida voqealar san’atkorona tarzda uyushtirilgan. U avvaliga Aminovning shum niyatlarini bilmaydi, unga yordamlashadi. So’ngra uning asl basharasini bilgach u bilan kurashadi. Bu xronikali syujet voqealari bo‘lsa, romanning uch qismga bo‘linishi, birinchi qismda Ganjaning sinovli kunlar qurshovida qolishi, oilasi porakanda bo‘lishi, ikkinchi qism Buva va otlarning Kiyikto‘qayda Amudaryo suvidan hosil qilingan suv omborining tagida manguga qolib ketishi, uchinchi qism esa ham Ganjaning hayotini, ham ekologik muhitni barbod qilgan Aminovning qamalishi haqidagi voqealar konsetrik syujet voqealaridir. Bu o‘rinda muallifning qorishqlik, har ikki tipga xos eng yaxshi jihatlardan foydalanishi asarning badiiy tomonlama mukammal bo‘lishiga xizmat qilgan.

Millat ziyolilariga nisbatan tazyiqlar hali oxiriga yetmagan bir paytda ushbu tarixiy romanning yozilishi qahramonlikdir. Bunday vaziyat haqida Erkin Samandar shunday deydi: “Sho‘rolar davrida ham tarixiy asarlar ozmuncha yozilgan emas. Lekin “rahmat” o‘rniga aksar hollarda yozuvchilar ta‘qibga uchrashganidan xabaringiz bor. “Navoiy” romani uchun, garchi asarda o‘sha davr talabi chetlab o‘tilmagan bo‘lsa-da, ustoz Oybek qanday malomatlarga qolgani ma’lum. “Jaloliddin Manguberdi” dramasi uchun Shayxzodani qamashgan. Mirkarim Osim ham, aslida ehtiyotkorlik bilan yozgan bo‘lsa-da, tarixiy asarlari uchun jazoga tortilgan... Bu ro‘yxatni davom ettirish mumkin. Lekin “ulug‘ og‘alarning” tariximizni buzib ko‘rsatgan asarlari ko‘klarga ko‘tarib maqtalgan, mukofotlarga sazovor bo‘lgan” [Samandarov E. 4:28].

Erkin Samandar ijodiga xos naturalistik tasvir mahoratining asosi yozuvchi xarakteri, tabiatni sevib yashovchi, teran fikrli bir shaxs ekanligi bilan bog‘liq. Jumladan “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romanida inson va tabiat munosabatlaridagi muammo real voqelik, tabiat va jonivorlar xarakterini chuqur o‘rganishning natijasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Айтматов А. Шаснинг табиатга эстетик муносабатини шакллантиришда экологик онгнинг роли. - Фалс. фанл. док. (DSc) дисс. диссертацияси – Тошкент, 2019. – 36 б.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi. Darslik. – Toshkent: Noshir. 2019. – B. 116
3. Самандаров Э. Ғайб қушлари. – Тошкент: Шарқ, 2009. – Б. 9
4. Samandarov E. Tarix mas’uliyatni sevadi. / “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi. 2008. 28-son.
5. Юсуф Хос Ҳожиб Қутадғу билиг. – Тошкент: Ғофур Ғулом, 1971. – Б.23